

Endi Londonning Gatwick aeroportiga ham parvoz qilamiz

2024 11 Mart

Uzbekistan Airways 7-apreldan boshlab Toshkentdan Londonga haftasiga uchta aviaqatnovni amalga oshiradi! Endi yo'lovchilarga Londonning ikkita aeroporti – Heathrow Airport va London Gatwick Airport o'rtasida tanlov imkoniyati beriladi.

Heathrow aeroportiga aviaqatnovlar seshanba va juma kunlari amalga oshirilishi davom ettiriladi. Toshkentdan Gatwick Airport'ga parvozlar 7-apreldan yakshanba kunlari quyidagi jadvalga muvofiq amalga oshiriladi:

- Toshkentdan jo'nab ketish soat 10:55, Toshkent vaqt bilan;
- Londonga yetib kelish soat 14:35, London vaqt bilan;
- Londondan jo'nab ketish soat 16:10, London vaqt bilan;
- Toshkentga yetib kelish ertasi kuni soat 03:00, Toshkent vaqt bilan.

Uzbekistan Airways - the Wings of Central Asia!